

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.F.Gaybullayeva	
No'xat navlarini o'sishi, rivojlanishi bilan oziqlantirish me'yorlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar	835
Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova	
Sun'iy quvursimon kovaklardan foydalanib suv erozijasiga qarshi kurashning samarasi	838
M.T.Abdullayeva, F.R.Qurolova	
Farg'ona viloyati adirlarida tarqalgan o'simlik turlari.....	841
S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov	
Determination of the amount of paulownia flowers and vitamins in their composition	847
M.T.Abdullayeva, M.Nazarov	
Tuproqni sog'lomlashtirishda mikroorganizmlar va mayda hayvonlarning ahamiyati	850
M.Nazarov Mamadali, Sh.M.Khalmatova	
Soil pollution by waste and measures to it prevent	854
D.M.Ahmedova, M.A.Boynazarova, H.S.Turdimatova	
Hovuz biotsenozining ekologik xususiyatlari	857
D.M.Ahmedova, H.S.Turdimatova	
Tut o'simligi navlarining bioekologiyasi	862
Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova	
O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar	868

ILMIY AXBOROT

Z.V.Alimova, M.A.Usmanova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha-tojikcha leksemalar va forsiy izofa haqida	871
X.A.Abdulxamidova, M.S.Sobirova	
Isajon Sultonning "Ozod" romanida intertekstuallik	876
M.A.Jo'rayeva	
Abdulla Avloniy ijodida safarnomaning o'rni.....	880
A.A.Qayumov, M.Sh.Abdurahimova	
Qo'chqor Norqobil qissalarida psixologik tasvir va psixofiziologik holat masalasi	884
I.I.Rustamova, D.A.Abdurahobova	
Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarining badiiy xususiyatlari	887
A.G.Sabirdinov	
Iqbol Mirzo she'riy mahorati haqida	890
A.A.Qayumov	
Hastalangan ruhiyat tasviri	894
R.M.Umurzakov	
Avtobiografik qissalarda bola obrazi	899
Q.V.Yo'lchiyev, A.Charos	
Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va georgiy pryaxinning "Sarob" romanlarida ironiyaning o'rni	903
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Ganj" va "Gavhar" istilohlari bilan bog'liq leksemalar xususida	907
G.A.Ikromova	
Dramalar tilida antroponimlarning qo'llanilishi (Sharof Boshbekov dramalari misolida).....	913
I.M.Naimjonova, Sh.A.Ganiyeva	
Tilshunoslikda maydon tushunchasiga nazariy yondashuvlar	918
N.A.Abdualiyeva	
Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan fors-tojikcha so'zlarning tahlili masalasi	922
A.R.Dadajonov	
Muhokama nutqining kompozitsion qurilishi.....	927
D.R.Teshaboyev	
Havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy qorishqlik	930
I.T.Axmadjonov, A.R.Dadajonov	
Kelishik shakllari sinonimiyasining semantik xususiyatlari	936



UO‘K: 821.512.8.

ISAJON SULTONING “OZOD” ROMANIDA INTERTEKSTUALLIK**ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТЬ В РОМАНЕ ИСАДЖАНА СУЛТОН «АЗОД»****INTERTEXTUALITY IN ISAJAN SULTON'S NOVEL "AZOD".****Abdulxamidova Xikmatoy Axrorjonovna¹** ¹Farg‘ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasida kata o‘qituvchisi, Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**Sobirova Mohlaroy Sodiqjon qizi²** ²Farg‘ona davlat universiteti talabasi**Annotatsiya**

Maqolda Isajon Sultonning “Ozod” romanlarida intertekstuallikning tutgan o‘rni tadqiq qilinadi. Istiqloq davri romanchiligi mavzuning badiiy talqini, odamning orzu-umidlari, shaxs kechinmalari, inson psixologiyasini tahlil etish yo‘lidan bormoqda. Mohiyatga evrilgan badiiy talqinlarda o‘zlikni anglashga intilish kuchli. Poetik tafakkur miqyoslarini kengaytirishga, shaxs jumbog‘i nima degan savolga javob axtarishga, tushunchalarni mudom o‘zgarishga mahkum ekanligini anglashga intilayotgan adiblarimizdan biri Isajon Sultondir.

Аннотация

В статье рассматривается роль интертекстуальности в романах Исаджона Султана «Азод». Роман периода независимости идет по пути художественной интерпретации сюжета, человеческих мечтаний и надежд, личных переживаний, анализа психологии человека. Стремление к самореализации сильно в художественных интерпретациях, превратившихся в суть. Исаджон Султан – один из наших писателей, который стремится расширить рамки поэтического мышления, найти ответ на вопрос, в чем загадка личности, и осознать, что понятия обречены на постоянное изменение.

Abstract

The article examines the role of intertextuality in Isajon Sultan's "Azod" novels. The novel of the period of independence follows the path of artistic interpretation of the subject, human dreams and hopes, personal experiences, analysis of human psychology. The desire for self-realization is strong in artistic interpretations that have turned into essence. Isajon Sultan is one of our writers who strives to expand the scope of poetic thinking, to search for an answer to the question of what is the riddle of personality, and to realize that concepts are doomed to constant change

Kalit so‘zlar: intertekstuallik, ramz, matn, intersubektivlik, timsol, ishora, roman fabulasi**Ключевые слова:** интертекстуальность, символ, текст, интерсубъективность, символ, знак, роман-басня**Key words:** intertextuality, symbol, text, intersubjectivity, symbol, sign, novel fable**KIRISH**

Badiiy adabiyotda intertekstuallik kam o‘rganilgan soha hisoblanadi. Intertekstuallik lotincha inter-aro, textum-to‘qima, mato, matn degan ma‘nolarni bildiradi. Fanga fransuz olimi Y.Kristeva kiritgan termin hisoblanadi. unga ko‘ra, har qanday matn avval mavjud bo‘lgan matnlarni transformatsiya qilgan xolda o‘ziga singdirgan sitatalar majmuidir. Mutaxassislar intertekstuallik konsepsiyasini rus olimi M.Baxtin qarashlarini rivojlantirish boshqacha aytganda, qayta idrok etish asosida vujudga kelganini ta‘kidlaydilar. M.Baxtin adabiyotning mavjudlik qonuniyatlari haqida to‘xtalib, har qanday asar o‘zida ijodkor voqeligini aks ettirgan xolda, o‘zidan avvalgi va o‘zoga zamondosh adabiyot bilan muntazam dialogik aloqada bo‘ladi, ya‘ni adabiyotning mavjudligi intersubyektiv xarakterga ega deb biladi. M.Baxtin ta‘limotining formal tomoniga urg‘u bergan Y.Kristeva esa dialogni matnlar doirasi bilan cheklab, intersubyektivlik o‘rniga intertekstuallik oldinga planga chiqaradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Intertekstuallik tushunchasi strukturalizm va poststrukturalizm yo'nalishidagi adabiyotshunoslikda juda tez ommalashdi. Jumladan, fransuz adabiyotshunosi R.Bart ham intertekstuallikni qo'llab quvvatlaydi, har qanday matn "qo'shtirnoqsiz sitata" deb biladi. Ya'ni unga ko'ra, har qanday matn mohiyatan intertekst bo'lib, unda avvalgi va joriy madaniyatiga oid matnlar u yoki bu darajada tanib olish mumkin bo'lgan alfozda mavjuddir. Albatta, adabiy asar o'zidan oldingi va joriy zamondosh adabiyot bilan dialogik aloqada ekan, unda boshqa matnlarning izlari sezilishi tabiiy. Biroq, poststrukturalistlar bu holni mutlaqlashtiradilar, uni badiiy asar tabiatini belgilovchi qonuniyat maqomiga ko'taradilar. Avvalo, ular matnni g'oyat keng tushunadi: adabiyot, madaniyat, jamiyat, tarix, inson — ularning bari matn tarzda o'qilishi va uqilishi mumkin. Shundan kelib chiqib, insoniyat madaniyati to'raligicha bitta intertekst sifatida tushunildiki, u yangi yaratilayotgan har qanday matnga asos (podtekst) bo'lib xizmat. Demak, yangi yaratilayotgan matn subyekti madaniyatning ulkan intertekstini tashkil qilayotgan sanoqsiz matnlarga singib ketadi, yo'qoladi. Shu tariqa matn muallifi intertekstual o'yin proeksiya qilinadigan bo'shliq deb tushuniladi, matnga esa individning maqsadli faoliyati emas ongsiz tarzda amalga oshuvchi "intertekstual o'yin" mahsuli sifatida qaraladi. Bu esa badiiy ijodda individuallikni inkor etib, tabiiy ravishda, "subyekt o'limi" (Fuko), "avtor o'limi" (R.Bart) konsepsiyalariga bog'lanadi. Yuksaklarning shamoli ularni suruv-suruv haydab borar, bir ozdan keyin shakli o'zgarib, shiddat bilan oldinga intilayotgan yosh toylar to'dasi shaklini olmoqdaydi. Samoviy bu otlarning uzun yollari shamolda hilpirab, adoqsiz tiniq kengliklarda rohatlanib chopishayotgandek tuyulardi. Ortlaridan ergashgan qora bulutlar to'dasi og'ir-vazmin suzar, bular g'oyatda ko'p va qat-qat, bag'irlarida jalalarni olib kelayotgan bo'lishlari ham ehtimol.

"U lola o'sha bulutlar chiqib kelgan joyda o'ssa kerak, deb xayolidan o'tkazdi Ozod. Shamol paydar-pay epkin urmoqda, loyqaga qorishgan o't-o'lan isini dimoqqa tutmoqda edi. Yo'l aniq: Uchyong'oqdan oshib o'tilsa, undan narida Tuz cho'liyu Oydinko'l bor. Oydinko'ldan ham narida yaydoq biyobon, biyobon ortida esa toshloqlar yastanib yotadi. Keyin tog'u tosh boshlanib ketadi, yanayam ichkariroqda, ikki tog' orasida sip-silliq baland qoyalalar bo'y cho'zgan, o'sha qoyalarning eng tepasiga chiqib borilsa bas". Mazkur lavhada "Shamol" xarakter ramzi. Qahramonning olamu odam sirlarini bilishga bo'lgan ishtiyoqi g'oya mohiyatini tahlil qilishga yo'naltiriladi: Shakl va mazmun uyg'unligini dalillash barobarida o'quvchini keskin fikrlar ziddiyatiga tayyorlab boradi. "Yo'l aniq: Uchyong'oqdan oshib o'tilsa, undan narida Tuz cho'liyu Oydinko'l bor. Oydinko'ldan ham narida yaydoq biyobon, biyobon ortida esa toshloqlar yastanib yotadi" jumlasining o'zidayoq o'z tajassumini topgan. Ayni paytda, Ozod Uchyong'oq va Tuz cho'li, Oydinko'l haqida muayyan tasavvurga ega emas. Unga yo'l ko'rsatuvchi shamol (qismat ramzi) syujet voqelarini izchil harakatlanishiga zamin hozirlaydi. Binobarin, tafakkur qilishga odatlangan kishilargagina olam sirlari o'z mohiyatidan dars beradi. Ozod – roman kompozitsiyasida tafakkur timsoli. Uning turli xil fikriy va ishqiy sarguzashtlari aynan shamol yordami (ishorasi) bilan yuksak mohiyatga evriladi. Adib ushbu romanida azal va abad o'rtasidagi mangu kurash, omonsiz jang, inson o'zagi sanalmish ma'rifatni tahlil va tadqiq qilishni maqsad qiladi. Unda qo'llanilgan ishora va tafsilotlar negizida erkin fikrlashga o'rganayotgan, o'zini tanishga ichki ehtiyojni hayot a'moliga aylantirayotgan ozod inson obrazini ko'ramiz. Ayniqsa, har bir detal, tasvir, mikro nuqtalarigacha voqelik drammatizmi qahramon qalbida uyg'ongan his-tuyg'ular bilan akslanadi, ziddiyatga kirishadi. Demak, tasvirlanayotgan voqelik zamirida mushohada zalvori tafsilotlararo teranlashib boradi. Bu haqda adabiyotshunos olim Abdug'afur Rasulov shunday yozadi: "Aslida romandagi barcha qiyofalar va obrazlar Ozodning o'zidir, deb o'ylash tarafdoriman. Akslar deganda ham mana shu mantiq nazarda tutilmaganmikin? Agar u ma'no kengliklari sari yo'lga chiqmasa, otasi kabi bo'lar va ekinzorda mehnat bilan kuni o'tarmidi? Boylik sari intilsa, qismati uzumzorlar egasining taqdiri kabi armon va taassufflar aro pushaymonlik so'qmoqlarida tentirash bo'larmidi? Er yetilayotgan barcha yigitlar eranlardir. Ozod o'zining eranlik xususiyati tufayli dillarga orom beruvchi – Diloromga intildi. Ha, ayol Dilorom, biroq, Vatan ham diloromdir". Darhaqiqat, olim e'tirofida ikki xususiyat ko'zga tashlanadi: birinchidan, asarda voqelik hikoyachisi shamol barcha hodisalarning bashoratgo'yi, qissago'yi, bilimdoni tarzida roman kompozitsiyasini yaxlitlashtiradi, ikkinchidan, har bir akslanayotgan timsol va taqdirlar bosh qahramon shuurini o'ziga mahliyo qiladi. Buning zamirida adib qadim mifologik tasavvurlardan joriy tasavvurlargacha qamrab oladi. Oraliqda botiniy hislar

zohiriy tushunchalarni idroklaydi. Ozod aynan ushbu taqdirar negizida ulg'aya boradi. Adib "Ozod" timsolida shartli ravishda Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr", Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr", Jaloliddin Rumiyning "Ichindagi ichindadir" asarlaridagi bosh g'oyaga mutanosiblikni payvandlaydi. Ezgulik va yovuzlik, ofat va balolar qayerdan kelishi, barcha balo qazolarning sababkori kim yoki nima degan savollarga mantiqiy javob axtarayotgan qahramon intellekti namoyishi qabarib ko'rinadi. Bir qarashda, Ozod timsol, ishora va ramzlarni o'zida jamlaydi. Aslida, tashqi biologik olam bilan ziddiyatga kirishayotgan mudom tole qushini izlab sargardon kezayotgan shaxs ruhiyati har bir qalbdan yashirin. Yozuvchi Isajon Sulton aynan ushbu jihat: qalb va qiyofa suvratini chizishni o'z oldiga aniq maqsad qilib qo'yadi. Zamonaviy o'zbek nasri tobora globallashib, butun insoniyat taqdiriga daxldor muammolarni badiiy talqin etib bormoqda. O'zbek yozuvchisi olam va odamni anglashda, uning maqsad va vazifalarini belgilashda sharqona badiiy-falsafiy konsepsiyani ilgari surmoqda. Shu ma'noda, zamonaviy o'zbek nasrini tadqiq etishda jahon adabiyotshunosligining yangicha talqin, tahlil metodlariga tayanish davrning talabidir. Yozuvchi Isajon Sultonning "Ozod" romani sharqona mumtoz falsafa va bugungi postmoderncha dunyoqarashni o'zida sintez qilgan asardir. Romanni o'qir ekansiz, musulmon sharqiga xos dunyoqarashning zamonaviy falsafiy ifodasiga duch kelasiz. Unda bugungi global dunyoda o'zligini yo'qota yozgan insoniyatning saodatga erish yo'li xususida so'z boradi. Tom ma'noda, yozuvchi olam va odamning sharqona konsepsiyasini yangicha ifoda yo'sinida bayon qiladi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

"Ozod" romani badiiy-ifodaviy jihatdan ham sharq adabiyoti bilan tutashadi. Zero, asar syujeti Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asarlaridagi syujetga mohiyatan yaqin turadi. "Mantiq ut-tayr" asarida Semurg'ni izlab yo'lga otlangan qushlar 7 vodiyni bosib o'tadilar. Bu vodiylar tasavvufdagi Haqiqatga eltuvchi 7 bosqichning ramzidir. "Ozod" romanida ham baxtu saodatga yetkazuvchi sirli lolani izlab yo'lga otlangan Ozod 7 ta maskanni bosib o'tadi: "Yo'l aniq: Uchyong'oqdan oshib o'tilsa, undan narida Tuz cho'liyu Oydinko'l bor. Oydinko'ldan ham narida yaydoq biyobon, biyobon ortida esa toshloqlar yastanib yotadi. Keyin tog'u tosh boshlanib ketadi, yanayam ichkariroqda, ikki tog' orasida sip-silliq baland qoyalar bo'y cho'zgan, o'sha qoyalarning eng tepasiga chiqib borilsa bas"⁸. Birgina shu misoldan anglash mumkinki, yozuvchi odam va olam mohiyatini idrok etish yo'lida sharq mumtoz adabiyotiga, aniqrog'i islom ta'limotiga tayanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Isajon Sulton Ator va Navoiy an'anasiga tayanib asar voqealarini muayyan yo'lda tasvirlaydi. Bu o'rinda ijodkor uchun qahramon yetib borgan manzil emas, balki bosib o'tilgan yo'l badiiy-falsafiy qiymatga ega. Aytish mumkinki, mazkur asarlarni umumlashtiruvchi jihat ham muayyan sinovlari bilan insonni komillik sari eltuvchi yo'l obrazidir.

Bugun jahon madaniyatiga sharqona dunyoqarash tobora kuchliroq ta'sir etib bormoqda. Mashhur rus olimi Yuriy Borev "Yangi davr – yangi paradigmalarda demakdir" deb yozadi. U insoniyat tarixidagi paradigmalarni tartibi bilan sanarkan, so'nggi, modernizmdan keyingi (hozirgi) davrni "Sharq modeli" deb ataydi. Unga ko'ra: "Sharq madaniyatlari olg'a surayotgan paradigma jamiyat hayotining ideal va maqsadlarini ko'rsatmaydi, balki donishmandlik va purnavbatlik ila uning yo'lini belgilab beradi". Uning Sharq falsafasi haqidagi fikrlari Ator va Navoiyning yuqorida eslab o'tilgan asarlarining (shu jumladan "Ozod" romanining) mazmun-mohiyatiga ham mos keladi. Bu asarlarning voqealarida anglangan manzil (ideal) tasviri emas, balki shu manzilga eltuvchi yo'l va unga qadar yo'lovchining toblanib borishi muhimroq.

Yuqoridagi kabi g'oyalarni ilgari surgan asarlar sirasiga jahonga mashhur yozuvchi Paulo Koeloning "Alkimyogar" romanini ham qo'shish mumkin. Zero, asar sharqona falsafani o'zida mujassam etgani bilan ahamiyatli. "Alkimyogar"da ham yo'lovchi obrazi tasvirlanadi. "Alkimyogar" romanining xazina izlab yo'lga tushgan Santyago ismli qahramoni o'z manziliga yaqinlashib borarkan, komillikka erisha boshlaydi. U manzilga yetib kelganda esa, izlagani o'z yurtida ekanligini tushunib yetadi. Ya'ni xazina o'zi bilgan xaroba binoning ostiga ko'milgan edi. Ammo Santyago o'z hayotining mazmuniga aylangan bu xazinani (aslida, xazina keng ma'noda baxtni anglatadi) uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tmasdan topa olmagan bo'lar edi. Xuddi shunga o'xshash voqealik "Ozod" romanida ham aks etadi. Roman qahramoni ham baxtning timsoli lolani qidirib yo'lga

⁸ Isajon Sulton. Ozod. –T.: "Sharq", 2012. B. 7.

ILMIY AXBOROT

chiqarkan, manzilga qadar turli voqealaru sinovlarni boshdan kechiradi. Ahiyri, manzilga yetgan Ozod lolaning o'ziday nochor, uning o'ziday baxtga orzumand maxluqot ekanligi ko'rib bariga tushunadi: "Baxt-u saodat nima ekanini endi-endi anglamoqdaman... yo'limda uchragan hamma narsa aslida xulosa chiqarishim va ma'nisini anglashim uchun ataylab yo'llaringa sohib qo'yilganini ham tushunyapman."⁹ Shunda Ozod o'zidagi mislsiz kuchni yurtiga qaytgandagina his qiladi. Ayni shu jihatlar, har roman syujetini Sharq mumtoz adabiyoti namunalariga borib tutashtiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugun o'zbek yozuvchisi ilgari surayotgan olam va odam konsepsiyasining asl ildizlari, ijtimoiy, falsafiy va tarixiy asoslarini belgilash zamonaviy adabiyotshunosligimizning dolzarb muammolaridan biridir.

REFERENCES

1. Abdulkhamidova Khikmatoy Akhrorjon Qizi. Хоразм Маъмун Академияси Ахборотномаси. Isajon Sultonning "Ozod" romanida aks xronotopi. Xorazm 2021.
2. Abdulkhamidova Khikmatoy Akhrorjon qizi. International Journal on Integrated Education Poetic Characteristics of Chronotopy of Photos in Isajon Sultan's Novel "Free" Indaneziya. 2021.
3. Isajon Sulton. Asarlar: roman va qissalar. – Toshkent: "G'ofur G'ulom", 2017. 2-jild.
4. Isajon Sulton. Ozod. –T.: "Sharq", 2012.
5. Mukhammadjonova, G. (2020, December). ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CREATIVE CONCEPT IN WORLD LITERATURE. In Конференции.
6. Qayumov, A. (2018). Creating of a national character through means of literature. Theoretical & Applied Science, (1), 235-240.

⁹ Isajon Sulton. Ozod. –T.: "Sharq", 2012.